

SIYOSIY PARTIYALAR – FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti “Siyosatshunoslik” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934584>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, ularning fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o‘rni, davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachilik funksiyasi hamda demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, siyosiy partiyalarning fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, siyosiy partiya, demokratiya, siyosiy institut, siyosiy ishtirok, jamoatchilik nazorati, parlament, siyosiy plyuralizm, davlat fuqarolik xizmati, siyosiy islohotlar.

Kirish. Fuqarolik jamiyatini barpo etish demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy demokratik jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvozanatlashtirish, fuqarolarning manfaatlarini ifodalash hamda ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ana shunday institutlar orasida siyosiy partiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy va siyosiy islohotlar siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, siyosiy plyuralizmni ta’minlash hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratilgan. Bu esa siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlovchi institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodasini shakllantirish, ularning manfaatlarini ifodalash, saylovlar orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirok etish hamda davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ular fuqarolik jamiyatining siyosiy instituti sifatida jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg‘unlashtirish va demokratik boshqaruv tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Mazkur tezisning maqsadi O‘zbekiston sharoitida siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o‘rni va funksiyalarini ilmiy tahlil qilish, ularning demokratik islohotlar hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tezisdagi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, siyosatshunoslik nazariyalari hamda milliy tajriba asosida siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati tizimidagi o‘rni baholanadi.

Asosiy qism. Konstitutsiyamizning tegishli moddalarida siyosiy partiyalar haqida quyidagi normalar belgilangan:

74-modda. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar” [1].

Fuqarolik jamiyati instituti sifatida siyosiy partiyalarning har qanday davlat va jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. Sobiq SSSR tuzumi davrida yagona, hukmron birgina partiya bo‘lganligining o‘zi ham sobiq totalitar tuzumning demokratiya prinsiplariga umuman yot bo‘lganligini ko‘rsatadi. Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilanoq huquqiy demokratik davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston siyosiy partiyalar shakllanishiga jiddiy e’tibor bilan qaradi. Siyosiy partiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini qonun darajasida belgilash va tartibga solish maqsadida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Eski tahrirdagi, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jami 13 ta (10, 12, 32, 34, 56, 57, 58, 60, 62, 106, 108, 112, 120) moddasida siyosiy partiyalar bilan bog‘liq qoidalar kiritilganligi mamlakatimizda siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi muhim rolini teran his

qilinganligini ko'rsatadi. Shuningdek, “Siyosiy partiyalar to'g'risida” hamda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi va boshqa bir qator qonun hujjatlari aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar tashkil etilishi hamda ularning erkin rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo'ldi. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda 2004 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida”gi Qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu Qonunning 7-moddasiga ko'ra, siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish nazarda tutilgan bo'lib, unda “Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi” deb belgilangan.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar rolini oshirishda 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan “Davlat boshqaruvi yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida”gi konstitutsiyaviy qonuni muhim o'rin tutdi. Mazkur qonun parlament faoliyatini samarali tashkil etish, ijro hokimiyati organlarini shakllantirish hamda ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [2]. Jumladan, “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi qonun 1-moddasida “siyosiy partiya” tushunchasiga ta'rif berildi: “Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir” [3].

Ushbu Qonunning “Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari” nomli 5-moddasida shunday deyilgan: “Davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi”. Ko'rib turganimizdek, yangi partiyalar tuzishdan tortib siyosiy partiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish, davlat darajasida qonuniy faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida yetarlicha qonunchilik asoslari mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizda 5ta siyosiy partiya mavjud: O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O'zbekiston xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, O'zbekiston ekologik partiyasi. “Bugun mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning umumiy a'zolari soni 3 million 423 ming 981 nafarni tashkil qilmoqda” [4].

Ushbu partiyalar tobora siyosiy jarayonlarda va mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol pozitsiyaga ega bo'lib bormoqda. Buni 2024 yil 27 oktyabrda bo'lib o'tgan muhim siyosiy jarayon – Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, viloyat va tuman Kengashlari deputatligiga bo'lib o'tgan saylovlardagi ishtiroki, partiyalarning siyosiy debatlar, ochiq munozaralar va saylovchilar bilan uchrashuvlar, partiya saylavoldi programmasi tashviqotlaridagi ishtiroklaridan ko'rish mumkin. O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning qay darajada xalq ishonchiga sazovor bo'lganligini quyidagi raqamlardan ko'rsak bo'ladi: Markaziy saylov komissiyasining 29 oktyabr kuni bo'lib o'tgan majlisida saylovda 74,72 foiz saylovchi ishtirok etgani, siyosiy partiyalarning har biri 7 foizdan ko'p ovoz to'plagan sababli Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi o'tgan va haqiqiy deb topilgani ma'lum qilindi.

Shuningdek, hududiy saylov komissiyalarining siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarni aniqlash to'g'risidagi bayonnomalariga asosan yagona saylov okrugi bo'yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov natijalari belgilandi va deputatlik mandatlari siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlandi.

Yagona saylov okrugi bo'yicha Qonunchilik palatasining 75 ta deputatlik o'rni siyosiy partiyalar o'rtasida quyidagicha taqsimlandi:

- O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi — 26;
- «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi — 14;
- Xalq demokratik partiyasi — 13;
- «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi — 12;
- Ekologik partiya — 10 [5].

Siyosiy partiyalar eng muhim siyosiy jarayon – saylovlardagi ishtiroki natijasida yuqoridagi natijalarga erishdilar. Partiyalarning mazkur saylovlar va saylavoldi kampaniyasidagi ishtiroklari avvalgi saylov kampaniyalaridagi ishtirokiga qaraganda jonlanishlar, qizg'in bahs-munozaralar, o'z programmasini

mukammallashtirishga urinishlar katta bo‘lgani bilan farq qilganini qayd etmoq lozim. Lekin bu hali siyosiy partiyalarning xalq hayoti, tafakkur tarziga faol va mustahkam kirib bordi degani emas. Siyosiy partiyalar fuqarolarda qat’iy, faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiya, faol sog‘lom siyosiy qarashlarni, xalqning davlat organlari ustidan ongli nazoratni amalga oshira olish darajasidagi siyosiy-huquqiy bilimi, tafakkurini hosil qilishga erishganlarida haqiqiy siyosiy partiya maqomi va maqsadiga erishgan bo‘ladilar. Buning uchun ular nafaqat saylavoldi davrda, balki uzluksiz ravishda xalq bilan birga bo‘lishlari, maxsus loyihalar, grantlar doirasida fuqarolarning siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirib borishlari kerak bo‘ladi. Aholining barcha qatlamlari bilan bevosita muloqotning oson va hech qanday to‘siqlarsiz, tezda amalga oshirish mumkin bo‘lgan shakllarini amaliyotga tatbiq qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida e’tirof etilgan siyosiy normalar va g‘oyalarni ularga faol singdirib borish muhim hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish maqsadida Konstitutsiyaning 122-moddasi 1, 2, 3-bandlariga shunday normalar kiritildi: “Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari quyidagilardan iborat:

- 1) tegishli mahalliy budjetlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- 2) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;
- 3) hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitish”. Bu normalar orqali vakillik organlarining boshqaruvdagi roli oshadi, shu bilan birga davlat budjeti ochiqlik prinsipini ta’minlashga xizmat qiladi.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangandi. Sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Prezidentimizning 2021 yil 3 martdagi “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va 2021 yil 4 martdagi “2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichi sifatida huquqiy demokratik davlat barpo etishdagi muhim sa’y-harakatlarning yangi to‘lqinini boshlab berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida qonun bilan mustahkamlangan va bir shaxs erkinligi boshqalarning haq-huquqi va erkinligiga daxl qilmaydigan, har bir fuqaro so‘z va vijdon erkinligi kabi huquqlaridan hech bir cheklovlarisiz foydalana oladigan, fuqarolarga munosib turmush darajasini kafolatlaydigan, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish mahsulining adolatli taqsimlanishida o‘zini o‘zi nazorat qila oladigan, hokimiyatlarning uchga bo‘linish prinsipi o‘rnatilgan davlat boshqaruvi hukm surgan, fuqarolar ixtiyoriy birlashmalar, tashkilotlar orqali o‘z manfaatlarini himoya qila oladigan, ehtiyojlarini qondira oladigan, o‘zini namoyon qila oladigan, siyosiy institutlar va nosiyosiy fuqarolik institutlari, davlat boshqaruvida ishtirok qilishni muayyan kelishuvlar va qonunlar orqali ro‘yobga chiqaradigan, boshqaruvda adolat bosh mezon bo‘lgan, doimiy ravishda takomillashib boruvchi tizim fuqarolik jamiyati deyiladi. Fuqarolik jamiyatining asosini inson va insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi. Odamlar ijtimoiy munosabatlarga turli ixtiyoriy birlashmalar, tashkilotlar orqali kirishadilar. Bular fuqarolik jamiyati institutlaridir.

O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, huquq va majburiyatlari, faoliyat doirasi tegishli qonun hujjatlari, farmon va qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar, hatto Oliy Bosh Qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiya darajasida e’tirof etilgan va belgilab berilgan. Endi ularni hayotga to‘g‘ri tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini ishga tushirish lozim. Bu ijtimoiy davlat sharoitida davlat fuqarolik xizmatchilari sog‘lom siyosiy tafakkurining rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 73-74-moddalar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. X.Mamatov.Davlat va jamiyat qurilishida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish. <https://buxoro.adliya.uz/> 09.10.2014.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi 337-I-son Qonuni. 1996-yil 26-dekabr. <https://lex.uz/> ma’lumotlar bazasi.

4. Nozimjon ERGASHEV. Demokratik jarayonlarda siyosiy institutlarning o‘rni va roli qanday? ANDIJONNOMA.UZ. 19.12.2023

5. Yagona saylov okrugi bo‘yicha saylov natijalari tasdiqlandi. 29.10.2024.
<https://kun.uz/kr/news/2024/10/29/yagona-saylov-okrugi-boyicha-saylov-natijalari-tasdiqlandi>